

**AMIR TEMURNING HARBIY YURISHLARI VA TAKTIKALARI****Shonazarov Maqsudbek Hasan o'g'li**

QarDU tarix fakelteti talabasi

+998942265832

shonazarovmaqsudbek2005@gmail.com

**I.Jabbarova**

Ilmiy rahbar:

QarDU O'zbekiston tarixi kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11604051>

**Аннотация.** Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temurning markazlashgan davlat tuzishdagi harakatlari uning bu yo'ldagi harbiy yurishlari haqidagi ma'lumotlar har xil manbalarda solishtirilgan. Shuningdek maqolada Amir Temurning qo'shini tuzilishi va tarkibi, Sohibqironning harbiy hiyla va taktikalari haqida ham ma'lumot berilgan.

**Калит сўзлар:** Sohibqiron, Amir Temur, Zafarnoma, Ibn Arabshoh, Klavixo, jangovor fillar, To'xtamish, Yildirim Boyazid, Xo'ja ilg'or, Samarqand, Movarounnahr, Xuroson .

**Аннотация.** В данной статье сравниваются сведения о усилиях Сахибкирона Амира Темура по созданию централизованного государства и его военных походах на этом пути в различных источниках. В статье также приведены сведения о структуре и составе армии Амира Темура, военных приемах и тактике Сахибкирана.

**Ключевые слова:** Сахибкирон, Амир Темур, Зафарнама, Ибн Арабшах, Клавиho, боевые слоны, Тохтамыш, Йылдирим Баязид, Ходжа Ильгор, Самарканд, Моваруннахр, Хорасан.

**Abstract.** This article compares information about Sahibqiron Amir Temur's efforts to create a centralized state and his military campaigns on this path in various sources. The article also provides information about the structure and composition of Amir Temur's army, Sahibqiran's military tricks and tactics.

**Key words:** Sahibqiron, Amir Temur, Zafarnama, Ibn Arabshah, Claviho, fighting elephants, Tokhtamish, Yildirim Bayazid, Khoja Ilghor, Samarkand, Movarunnahr, Khorasan.

Biz yashayotgan Qashqadaryo diyorida juda ko'p buyuk siymolar yetishib chiqqan. Bu siymolar ichida eng buyugi mohir sarkarda, markazlashgan davlat asoschisi Sohibqiron Amir Temur sanaladi. Amir Temur haqida juda ko'p fikrlar bildirilgan ular ichida eng yaxshisi yana bir Qashqadaryo o'g'loni O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tomonidan bildirilgan. Tarixdagi ulug' zotlar Bahri



Ummonda kezib yurgan bahaybat kemalarga o'xshaydi. Bir qaraganingizda, bu kema kuzyangizga yaxlit tashlangani bilan uning ichida va kayutalarida qanchadan-qancha tilsimli hodisalar yuz beradi. Va bu kemaning izidan mavjlangan iz qoladi. Bu iz hatto fazodan boqqanda ham ko'zga yaqqol tashlanishi mumkin. Biz buyuk Sohibqiron bobomiz Amir Temur hazratlarini dunyoda neki eng kuchli, eng jozibali, eng mahobatli bo'lsa, o'shalarga qiyoslashimiz mumkin. Bu ulug' zotning hayoti va faoliyati, ko'proq aytganda, tarjimai holi bizga ma'lum bo'lsa-da, biroq biz eslatgan cho'qqi yoxud ulkan kema yanglig', bu muhtasham siymoning nomi bilan bog'liq biz bilmagan, eshitmagan rivoyatlar, hikoyatlar yer yuzi bo'ylab kezib yuribdi.

Amir Temur 1336-yilda 9-aprelda kesh viloyatining Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ildi. Bu ma'lumot Amir Temur haqidagi boshqa ma'lumotlar kabi Arabshoh tomonidan yetkazilgan. Amir Temurning qayerda tug'ilganligi haqidagi ma'lumot faqat Arabshohning asaridagina uchraydi. Amir temur hokimiyat tepasiga chiqqach juda ko'p yurishlarni amalga oshirdi. Bulardan eng yiriklari To'xtamish va Yildirim boyazidga qarshi olib borilgan kurashlardir. Bu kurashlar Temur tarixiga bag'ishlangan turli asarlarda qanday yoritilganligini ko'rsatishga harakat qilaman.

Amir Temurning va Yildirim Boyazid o'rtasidagi jang Klavixo, Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy va boshqa tarixchilar tomonidan bizgacha yetkazilgan. Klavixo asarida jangni bunday tasvirlaydi: Turklar Konstantinopol shahri bilan ham. Temurbek bilan ham biron bitimga kelolmagach, ikki tomon ham qo'shin to'play boshlaydi. Harbiy ishda ancha tadbirkor va mug'ombir Temurbek Boyazidga qaraganda tezroq qo'shin to'plab, Erondan shoshilinch ravishda chiqib, Turkiya sarhadiga keldi. Avval yurgan yo'l bilan Arsinga (Erzinjon) yerlaridan o'tib, Sabastriya (Sivos) shahriga kelib tushdi. Temurbekning yetib kelganini bilgan turk podshosi o'z yo'lini o'zgartirdi. Yuk ortilgan ot-aravalarini Anguri (Anqara) degan mustahkam qal'ada qoldirib, barcha qo'shini bilan Temurbekka qarshi yurdi. Turk podshosining xufyona qilgan harakatlaridan xabar topgan Temurbek ham O'z yo'lini o'zgartirib, so'lga baland tog'lar tomonga qarab yurdi. Temurbekning o'z yo'lini o'zgartirganini kurgan Boyazid uni qochib ketayapti, deb o'ylab, katta tezlik bilan uning izidan quvishga tutinadi. Temurbek esa, baland tog'lar orqali sakkiz kun yo'l bosgach, tekis yo'lga tushib olib, Boyazid ot-aravalarini qoldirib ketgan Anguri (Ankara) qal'asiga keladi. Bu yerdagi ot-arava va boshqa anjomlarni qo'lga tushiradi. Bundan xabar topgan turk podshosi zudlik bilan Anguriga (Ankaraga) yetib kelishga harakat qiladi. Lekin bu qal'aga yetib kelganda turk podshosining qo'shini holdan toyib, charchagan edi.



Temurbek Boyazidni chalg'itish uchun ataylab aylanma yo'llardan yurgan edi. Shu yerda bo'lgan jangda yuqorida zikr etganimizdek. Boyazid yengilib asirga tushadi. Konstantinopol imperatori na Pera shahridagi genuyaliklar Temurbekka bergan va'dalarini bajarish o'rniga, aksincha, Yunonistondagi turklarning Turkiyaga qaytishiga yo'l ochib beradilar. Xullas, turk podshosi yengilgach. Konstantinopol va Pera hokimlari turklar tarafiga o'tib, qochqin turklarni o'z kemalarida Turkiyadan Yunonistonga tashiydilar. Shu sababli Temurbek nasroniylardan qattiq norozi bulib, buning alamini o'z mamlakatidagi nasroniylardan oldi.

Bu jang haqida Sharafiddin Ali Yazdiy quyidagicha ma'lumotlarni bergan: "Ikki soridin cheriklar saf tortib turdilar. Sohibqiron ul mahalda otdin tushub, niyoz yuzini hazrat Parvardigor sori qilib ikki rak'at namoz fath va nusrat uchun o'qudi. Va har doimkim, mundoq urush voqio' bulsa erdi, hazrat sohibqiron ul namozni o'qur erdi. Bu jihatdin hazrat Haqq subhonahu va taolo anga nusrat va fath karomat qilur erdi. Bu yerda ham ikki rak'at namozini o'qub, sidqu ixlos bila otlanib, maydon sori kelib gulda turdi. Va hukm bildikim, "Bahodurlar ilgari yurub, ishlariga mashg'ul bulsunlar!". Barchadin burun o'ng quldin amirzoda Abo Bakr muborizat maydoniga kirib, yigitlari bila o'q yey eliklariga olib, muxoliflar sori yurub shayba to'kaboshladilar, dushmanning so'l qo'lini ko'tarib bir-bir otilar.

Jahonshohbek va Qaro Usmonbek taqi ot solib, dushmanning sul qulda- gi turgon cherikini ko'tarib urdilar.

Va Kurashchikim, qaysari Rumnung o'g'lonlaridin ul bahodur va pahla von erdi, turub kub sa'yi qildikim cherikini turguzgolgay. Turguza olmay qochti. Va sohibqironning so'l qo'lidin amirzoda Sulton Husayn zafar shi'or cheriki bilan ot solib, qilich va nayza zarbi bila dushmanlardin kub kishini tushurdilar. Va amirzoda Muhammad Sultonga g'ayrat bulub, sohibqironidin ijizat tiladi. Sohibqiron dedi: "Sul qul sori yurigil va alarga ko'mak bulgil!" Va Afranjning dilovarlari turub kub ishlar qildilar va necha qatla bir-birini surdilar. Oxirulamr, nusratshi'or bahodurlari Las Afranjiyning o'g'lini cheriki bila surub qochurdilar. Va Yayoglari ot ayogida qolib, kub kishi o'ldi.

Alqissa, rumiylardin ancha kishi o'ldurdilarkim, ul sahroning tufro- gi alar qonidin balchiq buldi. Bayt:  
Zi rumiy sipax oncha uldurdilar,  
Ki tuldi bari yer yuzi, bahru bar.

Amirzoda Pir Muhammad Umarshayx va amirzoda Iskandar va amir Shoh Malik bahodurlar bilan ilgari yurub dushmanlardin kub kishini tushurdilar.



Shayx Nuriddinbek va Burundukbek yaxshi ishlar qildilar. Sohibqiron ko'rdikim a'do zaif bo'ldi, hukm qildikim, "Bir yula ot solsunlar!" Amirzoda Mironshoh beklari bila bir tarafdin va amirzoda 2656 Shohrux beklari bila bir soridin, barcha ittifoq bila hamla qildilar. Qiyomat kuni zohir bo'lub, bir suron va gavgo olamdin ko'pdikim, hargiz bu dahrdin mundoq kun ko'rmaydur edi. Malaklar falaklarda tahayyur bar- moglarini tishlab, nazorat qilur erdilar. Yildirim Boyazid amirzoda Muhammad Sulton sori chopib, alarni surdi va bir tepa ustiga chiqib ko'rdikim, cheriki bir-bir bulub turur, hayron qolib turdi. Va bir necha otlig va yayog aning qoshida yig'ildilar. Hazrat sohibqiron shahzoda Shohrux bila qaysari Rum sori mutavaj- jix buldi. Va amirzoda Mironshoh va amirzoda Sulton Husayn taqi Yildirim Boyazidqa tavajjux ettilar. Qaysar axshomgacha turub urushti.

Va namozshomga yaqin ul tepadin tushub, o'zini mansur cherikiga urub, cherik alarga yo'l berib, chiqib qochtilar. Ammo alardin kub kishini o'q bila otib uldurdilar. Yildirim Boyazid yuz mehnat va mashaqqat bila urtadin chiqib ketti. Va bir jamoat bahodurlar aning keynida tushtilar. Va qochqonlar havo issig'idin suvsab, kub kishi o'ldi. Nasim fath va nusrat Haqq subhonahu va taolo inoyatidin mansur cheriki sori bo'lub, dushmanni bostilar. Sohibqiron o'rduga tushti va Haqq taologa shukru sipos beqiyos dedi. Shahzodalar va beklar barcha yig'ilib, sohibqiron qoshiga kelib yukunub, mubarakbod dedilar. Va bu fath jum'a kuni, zul-hijja oyining o'n to'qkuzida, torix sekkiz yuz to'rtta (20.07.1402) voki' buldi. Val hamdu li-Lloh val minna.

Arabshoh Amir Temurni yomon ko'rganligi uchun uni yomon ko'rsatishga urinadi. Lekin u o'zi xohlamagan holda Sohibqiron haqida hech kim jur'at etib yoza olmagan ma'lumotlarni yozib qoldiradi. Bu urush haqida Arabshoh bunday yozadi: Temur Anqara shahriga yetib kelgan bo'lib, uning odamlari-yu otlari rohatlanayotgan va kerilib yurishib urushga intizor, jangga etagini shimarayotgan bo'lsa-da, to'qnashuvga e'tibor qilib, uning tashvishida qayg'urmas edilar. Go'yo ular Quraysh boshliqlari kabi suvga yetib kelganlar-u Badr musulmonlari misoli (Boyazid) askarlarini tashnalik tomonida qoldirganlar. Natijada, ular g'amu g'ussadan va tashnalikdan halok bo'lib, suvsizligu chanqoqlikdan qirildilar. Go'yoki u (Boyazid) (Temur) askarlarini shu manzilga boshlab kelib, o'z holi tili bilan ularga shunday nashida qildi: Misra «Ey mehmonimiz! Agar bizni uchratsang shunday topasanki, Biz mehmonmizu, sen bo'lsang manzil egasi».

Anqara, qaysiki uni Asvad ibn Ya'far o'z qasidasi "Tanonada" zikr qilgan bo'lib, mana u:



Ular Anqaraga tushdilar, tog'lardan kelayotgan Firot suvi  
ular ustiga sel bo'lib oqadi,

Bu jannat, jannatda baxt, farovonlik va bu bilan  
qilinadigan o'yin-kulgilar bir kun eskiradi va yo'q bo'lib ketadi

Qachonki qo'shin qo'shinga yaqinlashib, vahshiylar vahshiylarga urilib, sahiro-yu cho'llar ulardan to'lgach, chap (tomon) o'ng (tomon) dagi, o'ng (tomon) chap (tomon)dagi bilan uchrashgach, Ibn Usmon askarlari ichidan totorlar ajralib chiqdilar va avvalda Temur qanday tushuntirib, ko'rsatgan bo'lsa, xuddi shu zaylda Temur askari bilan qo'shilib ketdilar. Totorlar ular (turklar) askarlarining mustahkam qismi bo'lib, Ibn Usmon askarlaridan oshiq va aksar edilarki, hatto aytishlaricha, totor jamoalari ushbu sonsiz-sanoqsiz turk askarlarining uchdan ikkisiga yakinini tashkil qilganlar, balki aytilishicha, ushbu olomon Temur qo'shinining uchdan ikkisiga yaqin bo'lgan Ibn Usmon bilan birga uning farzandlaridan ham bo'lib, ularning eng kattasi amir Sulaymon edi. Sulaymon totorlar fe'lini ko'rgach ota- sining halokatga uchrashini payqadi. Shunda u askarlarining qolgan qismini olib, jang maydonidan chekinib, orqada qoldi va otasini tang ahvolda tashlab, o'zi bilan birga bo'lgan (kishi) lar bilan Brusa tomoniga ajralib ketdi. Natijada, Ibn Usmon bilan faqatgina piyodalar va ularning yaqinlari va «ozchilikni tashkil qilgan bilan qurolli jangchilar qoldi. Agar qochsa taloq voqe' bo'lishidan qo'rqib, Ibn Usmon qolgan hamrohlari bilan urushishga bel bog'ladi. U bu ma'arakasi-yu takroriy jangida Antaraning mana ushbu aytganini o'zida mujassam etdi:

Men seni eslayman, go'yo nayzalaring qonimdan yutayotgan,  
yaltiroq hind qilichlaring qonimni to'kayotgan,  
men qilichlarni o'pishni xush ko'raman,  
chunki ular kulib turgan labingdan yaltirayotgan tishga o'xshaydi.

Natijada, u (Ibn Usmon) zamon hodisalari va qiyinchiliklariga chidadi va imom Molik mazhabiga vafo etishni iroda qilib, undan voz kechmaslik yo'lini tutdi. Shunda uning atrofini go'yo bilakuzuk bilakni siqib olgandek (Temur) qo'shinlari halqasi o'rab oldilar. Qachonki usmoniyalar sulolasining mag'lubiyatga uchraganligi ayon bo'lib, uning muhtojlik lashkari ichida qiyin ahvolga tushgani ma'lum bo'lgach, piyodalar otliqlar ustiga sakradi, boltalar va o'tkir qilichlar ishga tushdi. Shu jang maydonida taxminan besh ming kishi bor edi, ular o'zlariga teng miqdordagini to'zitib, o'z adadlariga barobarini halok etdilar. Lekin ular yelpig'ich bilan qumtepaliklarini ko'chirmoqchi yoki dengiz suvini g'alvir bilan bo'shatmoqchi yoki tog'lar vaznlarini misqol qiyrotlari bilan o'lchamoqchi bo'lgan kishidek bo'ldilar. Ular o'sha tog'lar cho'qqilariga va ushbu




sherlarin tutib turgan dalalarga qora bulutdan to'xtovsiz qonli yashinlar va qora nayzalar yomg'irlarini yog'dirdilar. Qadar adovatchisi va qazo sayyodi ko'ppaklarni sigirlar ustiga olqishladi. Ibn Usmon askarlari yiqilish bilan yiqitish o'rtasida qoldilar. Ular qazoda baralla teshib o'tuvchi o'q hukmi bilan mazrub bo'lgandilarki, nihoyat ular tipratikonlar kabi bo'ldilar.

Jang saboqlari ushbu («guruhlar» o'rtasida «choshgohdan» asrgacha davom etib, «Temur» «to'dalari» «fathga ko'chib, rumliklar ustida «an-Nasr» («G'alaba») surasini tilovat qildilar. Keyin, qachonki u (turk) larning bilaklari charchab, dushmanga qarshi to'sqinlik va qurol-yarog'lari kamaygach, ularga uzoq yurtdan kelganlar va g'arib kishilar (Temur odamlari) hukmron bo'lib, ularni qilich va nayzalar bilan urib yanchdilar, ularning qonlari bilan qo'llarini, tanalari bilan vodiylarni to'lg'izdilar. Ibn Usmon o'lja tushib, qafasdagi qushdek tutqunlikda qoldi. Bu hodisa Anqara shahridan bir milga yaqin joyda, hijriy 804-yil zul-hijja oyining yigirma yettinchisi (1402-yil 28-iyul) chorshanba kunida bo'lgan edi. Askarlarning ko'p qismini chanqoqlik va madorsizlik halok qildi, chunki (o'sha kuni) yigirma sakkizinchi tammuz (iyul) edi.

Amir Temurni yoqtirmagan Ibn Arabshoh o'zi bilmagan va istamagan tarzda hali hech kim bitmagan, qo'l urmagan va jur'at etolmagan mavzuni yoritib, kelgusi avlod uchun qim- matli guvohliklar qoldirgan. - Josuslar, - deb yozadi Ibn Arabshoh, chor-atrof- da bo'layotgan hodisalar va ularning xabarlarini Temurga yetkazib, manzilu shaharlarni tavsiflardilar. Ularning tekis va notekis joylarining suratini keltirib, uy- lari va diyorlari o'rinlarini chizib ko'rsatardilar, shu lar orasida u joylarning yaqin yo uzoq, tor yoki kengli- gini, shaharlar va qishloqlarning nomlarini, manzil va panohjoylar nomlarini, har bir joyning ahliyu boshliqlari, amirlari, ulug'lari, fozillari, sharif lari, boylariyu faqirlarini, ularning har biri ism va lakabini, shuhrati va nasabini, hunari va vosita larini bayon qilardilar. Natijada Temur o'z fikri bi- lan shu narsalarni yaqqol ko'rib, tafakkuri vositasida O'z yerlari bilan birga xorij joylar ustidan ham tasar ruf yuritardi.

Chindan ham olganda Ibn Arabshoh O'z iqrorlari bilan boshqa muarrixlardan karama-qarshi o'laroq, Amir Temur razvedkasi va kontrrazvedkasi xususida qiziqar li fikrlar bildiradi. - Temur askarlari orasida, deb yozadi Ibn Arabshoh, butparast turklar, olovga sajda qiluvchi maju- siy ajamlar, kohinlaru sehrgarlar, zolimlaru munkir- lar bor edi.

Ibn Arabshox - Amir Temur razvedkachilari axbo rotlari xususida so'z yuritib shunday xulosaga keladi. Bu hukmda ular kamdan-kam xato qilardilar.





Ibn Arabshohning yana bir iqrori ham diqqatga sazovordir. “U (odamlarni) chalgʻitish qobiliyatiga ega boʻlib, harakatlarida shiddatlik (asari) bor edi.

Agar uning boshiga bexosdan bir mushkul ish tushsa, u oʻzini guyo ushbu ishkalga margub koʻrsatib (aslida) uni daf qilishga kirishardi. Uning (odamlarni) chalkashtirishidan bir misol shuki, agar unda biror makonga nisbatan xohish tugʻil- sa yoki biron qavm maydoniga tushishni istab qolsa, xufiyalik va bekinishga yuz qoʻyib, qalbaki harakat va Oʻzini gullikka solishni talab etardi”.

Ibn Arabshoh Sohibqironning razvedka bobidagi ma- xoratini tan olib yana shuni yozadi: U oʻz davlati arkon- larini, mamlakati ayonlarini, oʻz mulohaza va mashvarat egasi boʻlgan kishilarining birortasini ham qoldirmay tuplardiki, bola otaning, ota esa bolaning oʻrnini bosa olmasdi. Sungra ularga maxfiy tutgan masalasini zohir qilib, qaysi tomonga yurish haqida (ulardan) maslahat surar hamda gap jilovini ularga tashlab kuyib: “Xalq- ning xos qismi bu masalaga chukur qarab, bir kun bi- lan bir yil orasidagi ishlar oqibatini koʻzlab gapir- sa, uning gunohi yoʻq. Mayli, har kimsa xatoning eng kuyisigacha yiqilsa ham yoki savobning choʻqqisiga koʻta- rilsa ham farqi yoʻq, hech biri tortinmasdan gapi raversin. Chunki agar xato qilsa, bu nuqson emas, agar maqsadga muvofiq boʻlsa, unga ikki hissa mukofot”. - derdi. Shunda har kim oʻz jiddu jahdini sarflab, bu ma salada maqsadi va mehnatini koʻrsatib, oʻz ijtihodi ber- gan natijasini namoyish qilar, oʻylagan fikri Temur murodiga muvofiq deb tasavvur etardi. Shu tarzda hamma fikrlar toʻplanib, bir tomonga qarab yurishga ittifoq bulgach, ushbu majlis (ahli) tarqalardi. Keyin u oʻzining Sulaymonshoh, Kamariy, Sayfuddin, Ollohdod, Shoh Malik va Shayx Nuriddin kabi yaqin kishilari bilan majlis qurib, masalani qaytadan har tomonlama bagʻoyat puxta oʻylardilar va hamma yullarni diqqat bi lan muhokama qilardilar. Nihoyat, bir tomonga yurish qilish toʻgʻrisida ittifoq voqeʻ boʻlardi. Keyin Temur bu masalada oʻzining yoʻlboshlovchi, rahbaru boshliqla rini chaqirib, oʻsha (avval) kelishilgan tomonga yoʻl olib (faqat) boshqa tarafga qarab tarqalishlarini amr qilardi.

Qachonki zulmat oʻz chodirini buzib, subh bosh- lovchisi oʻz bayroqlarini yoygach va joʻnash uchun nogora chalinib, odamlar oʻz yuklarini ortib borishga kelishi- lib, amr qilingan tomonga ravona boʻlganlarida, Temur Oʻz mulozimlarini chaqirib, ular ham oʻz yuklarini or- tib, junay boshlaganlaridan keyin (odamlardan) aj- ralishtirishlarini va boshqa tomonga qarab yurishlarini amr qilardi. Masalaning oydinligi (qaysi tomonga yuri shlik) jamoaga faqat shu onda ayon boʻlar edi.



Odamlar u tomonga ketsa, Temur bu tomonga, askar- lar g'arbga yursa, Temur sharqqa yurardi.

Muarrixning mazkur yozganlaridan shu narsa ma'lum ki. Sohibqiron razvedkani ustomonlik bilan yo'lga kuygan. Ibn Arabshoh Amir Temurning kontrrazvedka- chilik mahoratini ham eslatib o'tadi. "Agar uning askari ichida (dushmanning) xabarchisi yoki askarning borish-kelishini kuzatib yuruvchi kishi bulsa, u darhol askarlarning yuklarini ortib qo'zg'alib yura boshlaganini ko'rgan zahotiyoq o'z maxdumiga qarab (kushday) uchib borib, unga o'ziga ma'lum bo'lgan xabar- ni - ya'ni ittifoq bo'lgan tomonga karab Temur askar- larining o'tlanib jo'naganini o'z ko'zi bilan mushohada etganligini izhor qilardi. Shunda askarlar junagan to- mon ahli o'z ehtiyotkorligini ko'rib, boshqa tomonlar esa har xil kulfatlardan o'zlarini bexatar sezardilar. Ular faqatgina Temur (keyin) qasd qilgan tomonni yaksonlab, vayron qilgandan va ular ustiga yonayotgan olov azobidan alangayu chug'lar tashlaganidan keyingina voqif bo'lar- dilar. Shular jumlasidan: Temur Shomda bo'lib, dushman askarlari unga qarshi turganda u o'z qo'shini halqasini bo'shatdi, deb itoat tarqatib, ozroq orqaga surilib chekindi hamda otlariyu odamlarining yemishga muhtojligi uchun o'zini endi Bag'dod tomonga junaydi degan xabarni yoyli. Sungra bu ishning natijasi Misr askarlarining mag'lubiyati bilan tugadi".

Ibn Arabshoh guvohligidan ko'rinib turibdiki, Amir Temur doimo sergak va ogoh bo'lgani holda o'z salta nati va o'z yaqinlari, lashkarboshilari orasida ham dush- man odamlari ish ko'rishini zinhor unutmagan. Achchiq tajriba, saboqlar va alamli judoliklar uni shunga ur- gatgan. "Temur tuzuklari" da Sohibqiron o'zining o'gitla ridan birida ichki razvedkaga doir qiziq misol keltiradi: "Podshoh majlis ahlidan ogoh va hushyor bo'lsinkim, ular ko'pincha ayb axtarib uni tashqariga tashiydilar. Podshohning so'zidan, ishidan vazirlarga, amirlarga xa- bar berib turadilar. Masalan, shunga o'xshash bir vokea mening o'zim bilan ro'y bergandi, o'zimning xos majli simdagi bir qancha suhbatdoshlarim vazirlar va amirla rimning josuslari ekan" Amir Temur razvedka va kontrrazvedka naqadar katta ahamiyatga egaligini avlodlarga o'z "Tuzuklari" da aniq hayotiy misollar bilan tushuntirgan: "Davlat ishida ta lay olchoq yomon odamlar bordirki, davlat dushmanlarini yaxshilab, uning jon fidolarini turli makr-hiylalar bilan xarob qiladilar. Chunonchi, Amir Husayn vazirla rimdan birini aldab, davlatimning tayanchi, ikki qo'li bulmish amir Idiku Temur va Amir Jokuni menga qar shi qo'ymoqchi bo'lib gap chiqardi. Men uning xiyonatini farosatim-la sezib qoldim, shuning uchun ular xususida aytilgan hamma gaplarni eshitmaganga oldim".



Amir Temur qo'shin tuzilish haqidagi ma'lumotlar Rui Gonsales de Klavixo ham ma'lumot beradi. Uning ma'lumotlariga ko'ra: Podshohning o'zi bilan doimiy birga yuradigan ku- shini bor. Bu quyidagi tartibda tuzilgan: qo'shin boshliqlar o'rtasida taqsimlangan. Yuz kishiga, ming kishiga, o'n ming kishiga yetakchilik qiladigan boshliqlar, shu ningdek, ularning hammasi ustidan rahbar bo'lgan boshlik mavjud. Bu oliy darajadagi boshliq biron bulin- maning biror joyga borishi haqida farmoyish bermoqchi bo'lsa, mazkur boshliqlarni huzuriga chaqirib, ulardan tegishli ma'lumot oladi va qo'shinni o'z xohishiga muvofiq taqsimlaydi.

Hozirgi paytda Jansa Mirassa (Amir Jahonshoh) shoh ko'shinining bosh lashkarboshisi edi. (Amir Jahonshoh) Samarqand podshosini o'ldirishda Temurbekning yonida turgan kishidir. Temurbek unga katta muruvvat ko'rsatib, kup yer-suv taqdim etdi, yuqori mansabga kuttardi. Bundan tashqari. Temurbek otlari va kuylarini O'z yasovullariga biriga ming, bobaqasiga o'n minglik suruv qilib, saqlash uchun bulib beradi. Shoh talab qilganda suruvlarni qaytara olmagan yoki tuyogini mul jaldagidan kamaytirib qaytargan taqdirda podshoh hech qanday tovon to'lash shartlariga ko'nmaydi, borini oladi-yu, lekin gunohkorni qatl etadi.

Aynan Klavixo Amir Temur qo'shinidagi fillar haqida ham ma'lumot beradi. Fil juda idrokli hayvon bulib, ustiga o'tirib olgan sohibining buyruqlarini itoatkorlik bilan ijro etadi. Boshlovchi filning bir kishi zo'rg'a sig'adigan juda qisqa buyniga o'tirib oladi, oyoqlarini fil qulog'i orqasiga uzatadi. Boshlovchi qo'lidagi sim xivich bilan filning boshini ishqalab, zarur tomonga yurishga majbur qiladi. Fil xivich ko'rsatgan tomonga tez yuradi yoki orqaga qaytishga imo qilsa, xuddi ayiq singari keyingi oyoqlari bilan shu ondayoq orqaga buriladi. Fil ayiq singari yuradi va chopadi.

Fil jangga kirganda filbonning o'zi ham qurollanib, filni ham qurollantiradi. Fil ayiqday sakrab- sakrab harakatlanadi. (Ilgariga qarab) har sakraganda boshini yuqoriga va pastga silkitib, (dushmanga) qilichsimon nayzalar bilan zarba beradi. Filni tezlik bilan jang qildirish lozim bo'lsa, boshlovchi uning boshiga qattiq urib, ancha og'ir jarohat yetkazadi. Zarbadan junbushga kelgan fil (yovvoyi) to'ng'izday og'zini ochib bukirib, (boshlovchi) undagan tomonga qarab tez chopali. Fil ochiq havoda turganda jarohati bir kechadayoq bitadi, mabodo tom ostiga qamab qo'ysalar, halok buladi.

Boshlovchi yerdan biror narsani olishni buyursa, fil har qancha og'ir narsani ham xartumi bilan olib va yuqoriga kutarib, ustidagi ayvonchada o'tirgan kishilarning qo'lga tutqizadi. Shuningdek, ayvonchadagi kishilar pastga



tushmoqchi bo'lganlarida fil ularning buyrugi bilan oldingi oyoqlarini bir tomonga, keyingi oyoqlarini ikkinchi tomonga uzatib, qorni qariyb yerga tegadigan darajada pastlashadi. Ustidagi odamlar ayvonchaga bog'langan ipga osilganicha, (filning) keyingi oyoqlari sagrisidan pastga tushadilar.

Shu kuni fillarni ot va odamlar ketidan choptirib, har xil qiziqarli tomoshalar ko'rsatdilar. Ularning hammasi bir bo'lib chopganlarida yer larzaga kelganday tuyulardi. Na ot, na boshqa biron hayvon yugurishda filga teng kelolmaydi.

Bularni o'z kuzim bilan ko'rib, "bir fil jangda ming odamga teng kela oladi" degan fikrga ishonch hosil qildim. Chunki fil odamlar orasidan yurib, har ikki tomonga ham zarba beradi. Filning o'zi yaralanganda esa, orqa-oldiga qaramay tez harakat qilib, yanada yaxshiroq jang kiladi. Filning juda uzun jag' tishlari balandlikdan zarba yetkazishga moslashganligi uchun uni o'tmaslashtirib, pastdan zarba yetkazishga mo'ljallab qilichsimon nayza o'rnatadilar. Fillar bir-ikki kun ovqatsiz bemalol yashay oladi. Aytishlaricha, hatto ovqatsiz uch kunlab jang qila oladi.

Xulosa qilib aytganda Amir Temur buyuk davlat asoschisi sifatida tarixda qoldi. Uning o'zi tomonidan tuzilgan "Temur tuzuklari" avlodlar uchun o'gitlar sifatida qoldi. Uning merosi mustaqillik davrida qayta tiklandi. 1996-yilda yurtimizda "Amir Temur yili" deb e'lon qilingani ham bunga yaqqol isbot bo'la oladi. Sohibqiron bobomizning tarixini yanada chuqurroq o'rganish biz yoshlar uchun sharaf bo'lishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. . Амир Темур салтанатида хавфсизлик хизмати: (тарихий бадиалар): (3 кисмли] / Ҳ. Содиков; масъул муҳаррир Н. Абдуазизова; гоя ва дастур муаллифи О. Убайдуллаев. - Т.: «ART FLEX», 2010.
2. "Amir Temur tarixi" Ajoib al-maqdur fi tarixi Tay- mur. 1-Il qismlar / Arab tilidan tarj. va izohlar, so'zboshi mual. U. Uvatov; Mas'ul muharrir A. O'rinboyev. K. II. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2019.
3. Темур тарихида тақдир ажойиботлари / Араб тилидан тарж, ва изоҳларни, сўз бошини У. Уватов тайёрлаган. Масъул муҳаррир А. Уринбоев. К. 2.- Т. Меҳнат, 1992.
4. Samarqandga - Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. R. Klavixo. Toshkent. "O'zbekiston", 2010.
5. Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma".
6. Temur tuzuklari. Toshkent. " G'afur G'ulom nashriyoti", 1991.